

## Endi biz quyidagilarni bilamiz:

tabiatda hamma  
narsaning o'z  
tartibi va  
ketma-ketligi  
mavjudligini;

tartib – biror  
narsaning to'g'ri  
ketma-ketligi  
ekanligini;

sonli ketma-ketlik  
kamayish yoki  
o'sish tartibida  
bo'lishini;

tabiatda va hayotda hamma  
narsa o'zaro bog'liq  
hamda ma'lum ketma-  
ketlikda sodir bo'lishini;

agar inson biror faoliyatni  
amalga oshirmoqchi  
bolsa, u bir nechta kichik  
faoliyatlarini ma'lum  
ketma-ketlikda  
bajarishi kerakligini.

## III bob Tomonlar va yo'nalishlar



## Tepada – pastda



-  1. Rasmga qarang. Savollarga javob bering.
- Javonning tepe tokchasida nimalar joylashgan?
  - Javonning pastki tokchasida qanday hayvonlar rasmi tasvirlangan?
  - Ayiqcha javonning qaysi tokchasida joylashgan?
  - Quyoncha javonning nechanchi qatori va nechanchi tokchasiga qo'yilgan?
  - O'yinchoqlar qaysi qatorda joylashgan?
  - Ikkinci qatorda qaysi hayvonlar tasvirlangan?



2. Har bir yashovchining manzili quyidagicha tartibda yoziladi: kirish yo'lagi nomeri, qavat nomeri. Masalan, mushukning manzili – 5, 3. Har bir yashovchining manzilini aniqlang.
3. Rasmlarga qarang. Krossvordni yeching.



2



1



3